HUDUDIY ONOMASTIKA TIZIMIDA NEKRONIMLARNI TADQIQ ETISHNING AHAMIYATI

Xushboqova Xurshida Qo‘ldosh qizi
Termiz davlat universiteti o‘zbek tili ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda onomastik tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblangan nekronimlar hududiy onomastika nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Nekronimlarning til, tarix va madaniyat bilan uzviy aloqasi, ularning hududiy xususiyatlari, semantik va nominativ belgilari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, nekronimlarni hududiy kesimda o‘rganishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilib, ularning tarixiy xotirani saqlashdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, hududiy onomastika, nekronim, toponim, madaniy meros, tarixiy xotira.*

Onomastika tilshunoslik fanining eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nomlash jarayonini, nomlarning kelib chiqishi, semantik tuzilishi va funksional xususiyatlarini o‘rganadi. Hududiy onomastika esa ma’lum bir geografik makon doirasida shakllangan onomastik birliklarni tizimli ravishda tadqiq etishga qaratilgan.

N.V. Podolskayaning “Onomastik terminologiya lug‘ati” onomastika fanining muhim nazariy manbalaridan biri bo‘lib, unda zamonaviy fan va amaliy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan taxminan 800 ga yaqin asosiy onomastik atamalar jamlangan. Ushbu lug‘at uzoq yillar davomida onomastik tadqiqotlar uchun terminologik asos vazifasini bajargan bo‘lsa-da, fan va jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi obyektlar va tushunchalarning paydo bo‘lishi mavjud terminologiyani yanada boyitish zaruratini yuzaga keltirmoqda [4: 10].

Insoniyat tarixining turli davrlarida vujudga kelgan va uzoq vaqt davomida ilmiy jihatdan yetarlicha e’tibordan chetda qolgan obyektlar bugungi kunda keng qamrovli tadqiqotlar markaziga aylanmoqda. Shunday obyektlar sirasiga atoqli otlarning alohida guruhi bo‘lgan nekronimlar – qabriston, mozor, maqbara, ziyoratgoh, qabr bilan bog‘liq obyektlarning nomlari – hududiy onomastika tizimida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Nekronimlar xalqning tarixiy xotirasi, diniy e’tiqodlari, etnomadaniy qarashlari hamda tilning leksik-semantik qatlamini aks ettiruvchi muhim onomastik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali qadimgi so‘z shakllari, arxaizmlar, dialektizmlar saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin. Shu bois nekronimlar til tarixini o‘rganishda muhim material hisoblanadi.

Nekronimlar toponimik makonda tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va etnik jarayonlarni aks ettiruvchi onomastik birliklar bo‘lib, ularni o‘rganish toponimistlar, onomastlar, lingvistlar hamda geograflar uchun muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, zamonaviy onomastika fanida nekronimlarni alohida terminologik birlik sifatida tadqiq etish, ularning tasnifi va hududiy xususiyatlarini aniqlash dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Nekronimlarni hududiy jihatdan o‘rganish nafaqat lingvistik, balki tarixiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarni aniqlash imkonini ham beradi. Shu sababli mazkur tezisda nekronimlarni hududiy tadqiq etishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Nekronim (yunoncha *nekros – o‘lik*, *onyma – nom*) – marhumlar bilan bog‘liq obyektlarning atoqli nomlarini ifodalaydi. Onomastik tizimda nekronimlar ko‘pincha toponimlar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ayrim hollarda mikrotoponim yoki makrotoponim sifatida ham faoliyat yuritadi. Hududiy onomastika tizimida nekronimlar:

- toponimik qatlam bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi;
- tarixiy shaxslar, avliyolar, urug‘-qabila nomlari bilan aloqador;
- diniy va madaniy terminologiyani o‘zida mujassamlashtiradi.

Hududiy onomastika doirasida nekronimlar muayyan geografik makon bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Har bir hudud nekronimlarining nomlanish modeli, leksik tarkibi va semantik tuzilishi bilan bir-biridan ajralib turadi. Bu holat hududiy tarix, etnik tarkib va diniy an’analar bilan izohlanadi. Nekronimlar hudud nuqtayi nazaridan tadqiq etilar ekan, ularning o‘ziga xoslikni ifodalovchi bir qator xususiyatlari mavjud bo‘ladi. Har bir hudud nekronimlarining shakllanishi va nomlanishi esa quyidagi omillarga bog‘liq:

- tarixiy jarayonlar;
- etnik tarkib;
- diniy e’tiqodlar;
- mahalliy til va sheva xususiyatlari.

Masalan, bir hududda **“Xo‘ja”**, **“Ota”**, **“Bobo”**, **“Avliyo”** komponentli nekronimlar ko‘p uchrasa, boshqa hududda **“Qabr”**, **“Mozor”**, **“Shahid”** kabi nomlash shakllari ustun bo‘lishi mumkin. Bu holat nekronimlarning hududiy differensiatsiyasini va lisoniy rang-barangligini ko‘rsatadi.

Hududiy nekronimlar ko‘pincha muayyan davrga oid tarixiy shaxslar nomi, avliyolar, urug‘-qabila nomlari yoki joyning tabiiy-geografik xususiyatlarini aks ettiruvchi komponentlar asosida vujudga keladi. Bu esa nekronimlarni hududiy kesimda tadqiq etish orqali ma’lum mintaqada hukm surgan etnik jarayonlar, migratsiya yo‘nalishlari va ijtimoiy munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Ayrim

nekronimlarda qadimgi leksik birliklar va arxaik nomlash unsurlarining saqlanib qolganligi ularni til tarixini o‘rganishda muhim manbaga aylantiradi.

Nekronimlarni hududiy o‘rganish, shuningdek, hududiy toponimik tizimning ichki tuzilishini aniqlashga xizmat qiladi. Ma’lum bir hududda nekronimlarning boshqa toponimik birliklar – masalan, *oronimlar*, *gidronimlar* va *oykonimlar* bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Bu jarayonda nekronimlarning toponimik makondagi joylashuvi, nomlanish motivlari va semantik qatlamlari aniqlanib, hududiy onomastika tizimining yaxlit manzarasi yaratiladi.

Hududiy tadqiqotlar nekronimlarning tasnifini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Nekronimlarni *nomlanish motivi*ga ko‘ra (shaxs nomi asosida, diniy tushunchalar asosida, geografik belgi asosida), *tuzilishi*ga ko‘ra (sodda, qo‘shma, murakkab) va *semantik xususiyatlari*ga ko‘ra guruhlash hududiy material asosida yanada aniq va asosli amalga oshiriladi. Bu esa nekronimlarni onomastik birlik sifatida terminologik jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nekronimlarni hududiy o‘rganishning yana bir muhim jihati – ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashdir. Nekronimlar orqali jamiyatning xotira va muqaddaslik haqidagi tasavvurlari, diniy marosimlar va urf-odatlar namoyon bo‘ladi. Hududiy farqlar esa bu tasavvurlarning mahalliy an’analarga mos holda qanday shakllanganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, nekronimlar madaniy xotiraning til vositasida ifodalangan shakli sifatida baholanadi.

Amaliy jihatdan nekronimlarning hududiy tadqiqi esa:

- toponimik xaritalar tuzishda;
- tarixiy-geografik tadqiqotlarda;
- madaniy meros obyektlarini ro‘yxatga olishda;
- turizm va ziyorat yo‘nalishlarini belgilashda muhimdir.

Zamonaviy geografik axborot tizimlari (GIS) yordamida nekronimlarni hududiy xaritalash ularning tarqalish arealini aniqlash, saqlanish holatini baholash va kelgusida qayta tiklash sohasida ham foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, hududiy nekronimlarni o‘rganish ta’lim jarayonida ham muhim o‘rin tutadi. Ular asosida mahalliy tarix va madaniyatga oid o‘quv materiallarini tayyorlash, yosh avlodda tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish mumkin. Bu holat nekronimlarning faqat ilmiy emas, balki ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, nekronimlarni hududiy o‘rganish onomastika fanining nazariy asoslarini chuqurlashtiradi, hududiy toponimik tizimning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi hamda til, tarix va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yoritishga xizmat qiladi. Shu bois, nekronimlarni hududiy jihatdan tizimli va kompleks o‘rganish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qilichev B. Onomastika [Matn]: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: 2023. –180 b.

2. Авлиёқулов Я. Теонимия тушунчаси ва теонимлар ҳақида // Ўзбек тилшунослиги XX1 асрда (илмий-назарий анжуман материллари). – Қарши, ҚарДУ нашри, 2008. – Б. 15-18.

3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. –Б.60.

4. М.В. Майоров. Некронимы и некротопонимы – предлагаемые элементы ономастической системы: статья.

